

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining qo'shimcha rasmiy BAYONOTI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi rasmiy BAYONOTI

- 2020-yil 24-mart kundan boshlab O'zR FA tizimidagi barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarida masofadan turib ish jarayonini tashkil etish yo'lga qo'yiladi hamda muassasa binosi va inshootlarini samarali saqlash ishlarini muvofiqlashtirish uchun ichki buyruq asosida o'z faoliyatini ish joyida amalga oshiradigan rahbar va xodimlar ro'yxatini tasdiqlanadi;
- mazkur xodimlar shaxsiy himoya (maska) vositalari bilan ta'minlanishi qat'iy nazoratga olinadi;
- FA ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlariga tashrif buyuruvchi shaxslarni faqat shaxsiy himoya vositalari (maska) hamda gigiena vositalarini (spirtli antiseptik) qo'llagan holda kiritish majburiy tartibda joriy etiladi;
- bugungi kundagi holatdan kelib chiqib hamda shaxsning sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash maqsadida barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari xodimlariga "uydan ish joyiga - ish joyidan to'g'ri uyga" tamoyili asosida o'z ish faoliyatini tashkil etish tavsiya etiladi.